

DOI: 10.5281/zenodo.16781681

Link: <https://zenodo.org/records/16781681>

YOSHLARNI KASB VA XORIJIY TILGA O'RGATISH ORQALI MEHNAT MIGRATSIYASI IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA DAVLAT SIYOSATI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Qo'chqarov Oybek G'ulomovich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

e-mail: oykuchkarov@mail.ru +998902318401

Paxriddinov Umidjon Mo'minovich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

pahriddinov6073@gmail.com +998906336073

***Annotatsiya-** Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlarni kasbga va xorijiy tilga o'rgatish orqali mehnat migratsiyasi imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan zamonaviy davlat siyosati va amaliy yondashuvlar ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. "Xorijga ish – mahalladan" tamoyili asosida shakllanayotgan yangi tizimning mohiyati, davlat va mahalliy mutasaddilarning roli, yoshlarning motivatsiyasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'siri atroflicha yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba va ilmiy manbalar asosida mavjud yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, istiqbolli takliflar ilgari suriladi. Maqola davomida empirik ma'lumotlar, statistik tahlil va guruhlashtirish usullari asosida real holatga asoslangan ilmiy xulosalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** mehnat migratsiyasi, kasb-hunar ta'limi, xorijiy tillarni o'qitish, yoshlar siyosati, bandlik, davlat strategiyasi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, empirik metod, iqtisodiy islohotlar, integratsiya*

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishi va zamonaviy kasblarga egalik qilishi tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Davlat bu boradagi ehtiyojni anglab, zarur mexanizmlarni ishlab chiqishga kirishdi. Ayniqsa, mehnat bozorining bugungi global xarakteri, migratsiya oqimlarining kuchayishi va xalqaro tajribadan foydalanish zarurati mavjud tizimlarni yangicha asosda qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

2024-yil 4-aprelda Prezident tomonidan qabul qilingan farmon bu boradagi muhim qadam bo'ldi. Unga ko'ra, fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish jarayoni "Xorijga ish – mahalladan" tamoyili asosida amalga oshirilishi belgilandi. Bu esa, joylardagi hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari orqali ijtimoiy sohada real tahlilga asoslangan yondashuvni bildiradi. Nomzodlar "Onlayn mahalla" platformasi orqali ro'yxatga olinib, ular xorijdagi ish beruvchilar tanlovlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kasbga ega emas yoki til bilmaydigan fuqarolar uchun esa alohida o'quv markazlari tashkil etilmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi huzurida buning uchun maxsus markaz ochildi. Bu markaz fuqarolarga xorijiy tillarni o'rgatish, kasbiy malaka berish va eng muhimi, ularni real ish joylariga yo'naltirish bilan shug'ullanadi.

Xorijda ishlash arzon emas. Vizalar, yo'l chiptalari, til imtihonlari va kasbiy sertifikatlar xarajati anchagina. Shuning uchun davlat bularning bir qismini qoplash

tizimini joriy qildi. Xususan, xalqaro til sertifikatiga ega bo'lganlarga xarajatining yarmi qaytarilishi nazarda tutilgan.

Bu yondashuv O'zbekistonning ochiqlik siyosatiga, dunyo bozorida o'z o'rnini topishga intilayotgan bir paytda ayni muddao bo'lib turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola – jamiyatimizning katta yutug'i" degan fikri esa bu siyosatning asosiy ruhiy poydevoridir.

Bu maqsadda 2000 dan ortiq maktabda 64 ta ishchi kasb va xorijiy tillar o'rgatilayotgan bo'lsa, boshqa tarafdin 2024-yil 17-apreldagi Hukumat qarori asosida professional ta'lim muassasalarida ham muayyan yo'nalishlarga ixtisoslashgan tizimlar yo'lga qo'yilmoqda. Bu tizim Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan hamkorlikda xorijiy ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, aniq kasblar bo'yicha malakali yoshlarni tayyorlashni ko'zda tutadi.

Aslida, bu yondashuv orqali yoshlar nafaqat xorijda mehnat qilish imkoniyatiga, balki tajriba orttirish, oila tebratish, iqtisodga hissa qo'shish, oxir-oqibatda esa o'z yurti uchun foydali bo'lgan mutaxassisga aylanish imkoniga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi tezkor o'zgaruvchan davrda raqobatbardosh bozor talablariga javob bera oladigan yoshlarni yetishtirish har qachongidan ham muhimroq. Bu borada ko'plab olimlarning fikr-mulohazalari, tahlillari va yondashuvlari bu jarayonni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Masalan, iqtisodchi olim Q.Abdurahmonov inson kapitalining sifatini oshirishni iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti deb biladi. Uningcha, ta'lim tizimi ish beruvchilarning ehtiyojiga mos holda takomillashmasa, natija bo'lmaydi [2; 11]. Bu g'oya hozirgi islohotlarning g'oyaviy ildizlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, olimlar A.A.Abdug'aniyev, N.Xo'jayev, Sh.Xolmo'minov va boshqalarning tadqiqotlarida mehnat bozori bilan demografik o'zgarishlar, ishsizlik muammosi va sifatli ish kuchiga ehtiyoj masalalari chuqur o'rganilgan [2].

D.Kudbiyev va Sh.Kudbiyevlar esa yoshlarning kasb tanlashdagi real imkoniyatlari bilan ularning xayoliy tasavvurlari orasidagi tafovutga e'tibor qaratadi. Bu tafovutni yo'qotish uchun esa tizimli yo'naltirish, aniq axborot va sifatli ta'lim kerak [3].

Xorijlik olimlardan A.Nikiforova, N.Zadisenskaya, A.Gladchenko va boshqalar mehnat bozori va ishsizlik muammolarini tahlil qilishda migratsiya va ishchi kuchi o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni ochib bergan. Rossiyalik Y. Tryukanova esa migratsiya jarayonlarini savdo oqimlari bilan solishtirib, bu ikki yo'nalishdagi o'xshashliklarni aniqlagan. Uning fikricha, mamlakat rivojlangani sayin nafaqat tovar va xizmatlar, balki malakali ishchi kuchi almashinuvi ham kengayadi [8].

Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni kasb va tilga o'rgatish masalasi nafaqat ta'lim, balki kengroq iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda qaralishi kerak.

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlil, ta'lim siyosati va migratsiya masalalari birgalikda ko'rib chiqildi. Asosiy metod sifatida empirik yondashuv, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, hukumat qarorlari va tegishli statistik hisobotlar asos qilib olindi [1; 4; 5; 6; 7; 10; 12; 13].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston bugungi kunda mehnat migratsiyasini shunchaki tashqi ishchi kuchi jo'natish vositasi emas, balki yoshlarga yangi ufqlar ochadigan, ularni malaka va tajriba bilan qurollantiradigan keng qamrovli tizim sifatida qayta ko'rib chiqmoqda. Ayni paytda shakllanayotgan model – bu faqatgina ish topish emas, balki ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy faollik va shaxsiy o'sishning muhim poydevori hamdir.

"Xorijga ish – mahalladan" tamoyili – oddiy shior emas. Bu g'oya orqasida joylarda yashayotgan, ko'pincha imkoniyati cheklangan, lekin intilishi kuchli bo'lgan yoshlarning hayotini tubdan o'zgartirishga qaratilgan amaliy mexanizm yotibdi. Har bir mahallada yoshlar bilan ishlaydigan yetakchilar, hokim yordamchilari bu jarayonga bevosita jalb qilinmoqda. Ya'ni, muammo yuqoridan pastga emas, pastdan yuqoriga qarab hal qilinmoqda – bu esa tizimda hayotiylikni ta'minlaydi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, odamga imkoniyatni u yashayotgan joyda berish kerak. Aynan shu yondashuv bilan hozirda 27 ta professional ta'lim muassasasida xorijda talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarga moslashtirilgan o'quv kurslari ochildi. Bu kurslarda nafaqat kasb o'rgatilmoqda, balki xorijiy tillar, madaniy moslashuv va ish etikasi kabi jihatlar ham e'tibordan chetda qolmayapti.

Yana bir muhim jihat – davlat bu jarayonda kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'rinmoqda. Til o'rganish, kasbiy tayyorgarlik, imtihon va hujjat xarajatlarining ma'lum qismini qoplab berish orqali hukumat yoshlarning orqasida turganini namoyon qilmoqda. Bu esa ayniqsa ishsizlik bilan yuzma-yuz turgan, lekin harakat qilishga tayyor bo'lgan yoshlar uchun katta motivatsiya manbai bo'layapti.

Muhokamalar jarayonida shuni ham ko'rish mumkin: bu yangicha tizim faqat bandlikni oshirish bilangina cheklanmayapti. Unda inson salohiyatini ochish, uni o'ziga va jamiyatga foydali shaxsga aylantirish niyati ham mujassam. Yangi ish o'zni – bu faqat daromad emas, balki o'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, oilaviy barqarorlik va nihoyat, jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini oshirish demakdir.

Bugun yuzlab yoshlar xorijda ishlash imkoniga ega bo'layotgan bo'lsa, bu orqada turgan tizimiy yondashuvlar, qat'iyatli siyosat va eng muhimi, joylarda yurayotgan real ish natijasidir. Aslida, mehnat migratsiyasining zamonaviy modeli – bu zamon talablari bilan yuzma-yuz kelgan O'zbekiston yoshining o'zgarayotgan qiyofasidir. Va bu o'zgarish orqasida faqat islohotlar emas, balki kelajakka bo'lgan sog'lom ishonch bor.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugun mehnat migratsiyasi masalasi O'zbekistonda faqat iqtisodiy zarurat emas, balki strategik imkoniyat sifatida qaralayotgani bejiz emas. Davlat tomonidan boshlangan islohotlar, ayniqsa yoshlarni kasbga va xorijiy tilga o'rgatishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar, qisqa muddatda aniq natijalar bera boshladi. Eng muhimi -bu jarayonlar odamlar hayotiga bevosita ta'sir qilmoqda. Yuzlab yoshlar xorijda ish

topish, malaka oshirish, dunyoqarashini kengaytirish orqali nafaqat o'zining, balki oilasining, jamiyatining kelajagiga hissa qo'shmoqda.

Ammo bu tizim hali shakllanish jarayonida. Demak, uni yanada mukammallashtirish, mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va hal etish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Quyidagi takliflar aynan shu maqsadga xizmat qilishi mumkin:

1. **Kasb va til o'rgatish kurslarini hududiy ehtiyojga moslashtirish.** Har bir viloyat, hatto har bir tuman bozor talabi jihatidan turlicha. Shu bois, o'quv dasturlarini bir xil andozada emas, balki lokal real ehtiyojlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

2. **Xorijdagi ishonchli ish beruvchilar bilan barqaror aloqalarni kengaytirish.** Doimiy va ishonchli hamkorlar orqali nafaqat ish o'rinlari, balki yoshlarning huquqiy himoyasi, yashash sharoiti va mehnat shartlari ham kafolatlanadi.

3. **Mahalliy mutasaddilar, ta'lim muassasalari va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rtasidagi uzviy hamkorlikni kuchaytirish.** Boshqaruv zanjiridagi uzilishlar yoshlarning imkoniyatdan to'liq foydalana olmasligiga olib keladi. Shu bois, bu tizimda "har kim o'z ishini qiladi" tamoyili emas, balki "bir yo'nalishda, bir maqsadda harakat" prinsipiga asoslanish lozim.

4. **Motivatsiyani faqat moddiy yondashuv bilan emas, ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham mustahkamlash.** Til o'rganayotgan yoki kasbga tayyorlanayotgan yoshga uning qilayotgan ishi nafaqat foydali, balki yuksak qadriyat ekanini his qildirish muhim.

5. **Monitoring va tahlil tizimini yo'lga qo'yish.** Har bir loyiha, har bir tashabbus doimiy tahlil ostida bo'lishi, foyda va kamchiliklari aniqlanib borilishi kerak. Bu orqali tizimda real natijalarga asoslangan rivojlanish bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni kasb va xorijiy tilga o'rgatish orqali mehnat migratsiyasini yangi bosqichga olib chiqish -bu oddiy mexanik jarayon emas. Bu -har bir fuqaroni qadrlash, unga ishonish va uni kelajakka tayyorlash demakdir. Shunday yondashuv orqali O'zbekiston o'zining eng katta boyligi – yoshlari salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga yaqinlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 400 b.
2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat bozori va demografik jarayonlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 312 b.
3. Kudbiyev D., Kudbiyev Sh. Yoshlarning mehnat bozori haqidagi qarashlari // Yoshlar siyosati. – 2022. – №4. – B. 42–48.
4. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2023-yil yakuniy hisobot materiallari. – Toshkent, 2024.
5. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining rasmiy sayti – Rejim dostupa: www.migration.uz (murojaat qilingan sana: 25.07.2025).

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 17-apreldagi 213-sonli qarori.
8. Ганиев Б.С., Ганиева М.С. Семья как важный социальный фактор формирования предпринимательских навыков у молодежи (Опыт Узбекистана) // XV Всероссийская Парыгинская научно-практическая конференция (с международным участием "Проблемы социальной психологии и социальной работы" // Санкт-Петербург, 17 апреля 2020 года, -С. 25-27
9. Bayqabilov U. Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish texnologiyasi // Multidisciplinary Scientific Journal. – 2022. – May.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 27-apreldagi PQ-239-son qarori.
11. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 450 b.
12. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – Rejim dostupa: <https://www.lex.uz>
13. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi – Rejim dostupa: <https://mehnat.uz>